



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

KREATIV FIKRLASH ASOSIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Toxirova Shaxnoza Maxmudjon qizi

University of Business and Science

Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrası o'qituvchisi

Email: shaxnozatoxirova9295@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativ fikrlash asosida yozma nutqni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda kreativ yondashuvning o'рни, lingvodidaktik imkoniyatlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishda divergent tafakkur, refleksiv faoliyat, interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, yozma nutq, lingvodidaktika, kompetensiyaviy yondashuv, akademik yozuv, innovatsion pedagogika, divergent tafakkur, refleksiya, ta'lim texnologiyalari.

LINGUISTODICATIC BASIS OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH BASED ON CREATIVE THINKING

Tokhirova Shakhnoza Makhmudjon qizi

University of Business and Science

Teacher of the Department of Preschool-Primary Education and Physical Education

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the linguistic and didactic foundations of developing written speech based on creative thinking. The role of a creative approach in the formation of students' written speech competence in the modern education system, linguistic and didactic opportunities, and the effectiveness of innovative pedagogical technologies are highlighted. The importance of divergent thinking, reflexive activity, interactive methods, and digital educational tools in the development of written speech is also revealed.

Key words: creative thinking, written speech, language didactics, competency-based approach, academic writing, innovative pedagogy, divergent thinking, reflection, educational technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n33>

Kirish. Jahon ta'lim tizimida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi hamda o'z fikrini yozma shaklda mantiqiy, izchil va ta'sirchan ifoda eta olishi muhim ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli yozma nutqni rivojlantirish masalasi lingvodidaktika, pedagogika, psixologiya va kommunikativ tilshunoslikning kesishgan nuqtasida tadqiq etilayotgan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratib, "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bilimli, tafakkuri keng va kreativ yoshlar qo'lidadir" [1; 212-b.] deya ta'kidlaydi. Ushbu strategik qarash ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim mazmunini tubdan yangilashni talab etmoqda. Endilikda ta'limning asosiy maqsadi tayyor bilimlarni uzatish emas, balki o'quvchilarda kreativ tafakkur, refleksiv yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu esa yozma nutqni rivojlantirish metodikasiga yangicha ilmiy-pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yozma nutq inson tafakkurining mahsuli sifatida murakkab psixolingvistik jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan yozma nutqni rivojlantirish masalasini tafakkur jarayonidan ajratilgan holda tadqiq etish mumkin emas. Mazkur ilmiy yondashuvni Leontyev Aleksey Alekseyevich yanada rivojlantirib, nutq faoliyatini kommunikativ va intellektual jarayon sifatida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, "Yozma nutq insonning murakkab analitik-sintetik faoliyati mahsuli bo'lib, u tafakkur, xotira va kommunikativ ehtiyojlar integratsiyasida yuzaga keladi"[2; 94-b.]. Ushbu qarash yozma nutqni faqat grammatik me'yorlarni egallash emas, balki mustaqil fikrlash va kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda kreativlik fenomeni pedagogik tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylanmoqda. Guilford Joy Pol kreativlikni divergent tafakkur bilan bog'lab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida originallik, moslashuvchanlik va fikrlar sermahsulligini ko'rsatadi. "Divergent tafakkur yozma nutq jarayonida o'quvchining yangi g'oyalarni ilgari surishi, noodatiy yondashuvlardan foydalanishi, individual uslub yaratishi, obrazli tafakkur asosida matn tuzishini ta'minlaydi"[3; 172-b.]. Torrance Ellis Pol esa kreativlikni "Muammolarni sezish va original yechim topish qobiliyati"[4; 81-b.] sifatida izohlaydi. Mazkur nazariya yozma nutqni rivojlantirishda esse, muammoli matn, ijodiy topshiriq va refleksiv yozuv texnologiyalaridan foydalanishning metodologik asosini tashkil etadi.

Lingvodidaktik nuqtayi nazardan yozma nutq tilning barcha sathlari integratsiyasida shakllanadigan murakkab kompetensiya hisoblanadi. O'zbek metodist olimi G'ulomov Abdulla "O'quvchi yozma nutqning rivojlanishi uning mustaqil fikrlashi va til birliklaridan o'rinli foydalanish darajasiga bog'liq" [5; 219-b.] ekanligini ta'kidlaydi. Olimning mazkur fikri kreativ yozuvning lingvodidaktik mohiyatini ochib beradi.

Shuningdek, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar yozma nutqni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Brown Douglas H. "Texnologiya til o'rganishning interaktiv va mazmunli shakllarini kengaytiradi"[6; 241-b.] deb yozadi. Bu esa elektron platformalar, bloglar, multimedia esse va kollaborativ yozuv texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Azimov Eldor Gennadevich va Shchukin Anatoliy Nikolaevich til o'qitish metodikasini tahlil qilib, "Kommunikativ kompetensiya tilni bilish emas, balki undan real vaziyatlarda samarali foydalana olish qobiliyatidir"[7; 128-b.] deb yozadi. Luriya Aleksandr Romanovich yozma nutqni "Ongli ravishda boshqariladigan murakkab nutq faoliyati"[8; 156-b.] deb izohlaydi. Mazkur ilmiy qarash yozma nutqning spontan emas, balki rejalashtirilgan, analitik, refleksiv jarayon ekanligini ko'rsatadi. Kreativ yozuv jarayonida o'quvchi mavzuni idrok qiladi, g'oyalarni generatsiya qiladi, semantik bog'lanishlarni shakllantiradi, matn kompozitsiyasini yaratadi, uslubiy vositalarni tanlaydi, matnni tahrir qiladi. Demak, kreativ yozuv tafakkur va tilning sintezlashgan faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiya zamonaviy pedagogikaning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Refleksiv faoliyat o'quvchining o'z fikrini tahlil qilishi, yozgan matniga baho berishi, xatolarni

aniqlashi, matnni takomillashtirishi jarayonlarini o'z ichiga oladi. Davydov Vasiliy Vasilyevich refleksiyaning "Shaxsning o'z faoliyatini anglash va tahlil qilish qobiliyati" [9; 144-b.] sifatida tavsiflaydi. Mazkur nazariyaga asoslanib aytish mumkinki, refleksiya yozma nutqni rivojlantirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biridir. Chunki refleksiv tahlil matn sifati oshishiga, uslubiy aniqlik kuchayishiga, mantiqiy izchillik shakllanishiga, akademik yozuv madaniyati rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu ilmiy qarash yozma nutqni rivojlantirishning asosiy maqsadi grammatik bilimlarni o'rgatish emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ekanligini tasdiqlaydi.

Kommunikativ kompetensiya zamonaviy til ta'limining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Hymes Dell kommunikativ kompetensiyani "Til birliklarini vaziyatga mos qo'llash qobiliyati" [10; 276-b.] sifatida izohlaydi. Mazkur yondashuv asosida yozma nutq grammatik jihatdan to'g'ri, semantik jihatdan aniq, pragmatik jihatdan mos, kommunikativ jihatdan samarali bo'lishi kerak. Agar yozma nutqni rivojlantirish jarayoni kreativ fikrlash, kommunikativ faoliyat va refleksiv yondashuv integratsiyasi asosida tashkil etilsa, o'quvchilarning yozma kompetensiyasi samarali rivojlanadi. Mazkur konsepsiya konstruktivistik pedagogika, kommunikativ lingvodidaktika, psixolingvistika, kreativ pedagogika nazariyalarining integratsiyasiga asoslanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yozma nutq metodikasi asosan reproduktiv faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchining kreativ salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi. Natijada qoliqli fikrlash, stereotip matn yaratish, lug'aviy kambag'allik, mantiqiy izchillikning sustligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli yozma nutqni rivojlantirish metodikasini kreativ fikrlash asosida modernizatsiya qilish zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi kreativ fikrlashni rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortib borayotgani, yozma nutq kompetensiyasining xalqaro baholash dasturlaridagi ustuvor ahamiyati, lingvodidaktik yondashuvlarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi, raqamli ta'lim muhitida yozma kommunikatsiyaning kengayishi, yozma nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish zarurati.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning yozma nutqi va matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik hamda psixologik omillarni aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot lingvodidaktika, psixolingvistika va kreativ pedagogika integratsiyasiga tayangan holda olib borildi, bu esa olingan natijalarning ilmiy ishonchliligi va validligini ta'minladi.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi kreativ fikrlashning psixologik va pedagogik mohiyatini ochib berish, yozma nutqning lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilish, kreativ yozuv texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, yozma nutqni rivojlantirishning innovatsion modelini ishlab chiqish, eksperimental sinov asosida metodikaning samaradorligini baholash. Shunday qilib, kreativ fikrlash asosida yozma nutqni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktikaning nazariy hamda amaliy integratsiyasini talab qiluvchi ko'p qirrali ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va qiyosiy metodlar uyg'unlikda qo'llanildi. Nazariy bosqichda yozma nutq, kreativ fikrlash va kommunikativ kompetensiyaga oid ilmiy

manbalar tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa o'quvchilarning yozma faoliyati real ta'lim jarayonida kuzatildi va baholandi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, yozma ishlarni mazmuniy tahlil qilish, qiyosiy tahlil hamda sifatli (qualitative) baholash usullari keng qo'llanildi. Shuningdek, o'quvchilarning matn yaratish qobiliyatini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayoniga quyidagi innovatsion faoliyat turlari joriy etildi erkin yozuv (free writing) mashqlari, hikoya tuzish (storytelling) topshiriqlari, refleksiv yozuv faoliyati, assotsiativ tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar.

Eksperimental ishlar boshlang'ich ta'lim sinflarida amalga oshirildi va unda boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichli eksperimental model asosida tashkil etildi: diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy (baholovchi) bosqichlar.

Diagnostik bosqichda o'quvchilarning boshlang'ich yozma nutq darajasi, matn yaratish kompetensiyasi, leksik boyligi hamda kreativ fikrlash ko'nikmalari aniqlab olindi. Bunda yozma topshiriqlar va tahliliy baholash mezonlari asos qilib olindi.

Shakllantiruvchi bosqichda ta'lim jarayoniga kreativ pedagogik texnologiyalar tizimli ravishda joriy etildi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, original g'oya yaratish qobiliyati va izchil matn tuzish ko'nikmalari rivojlantirildi. Shuningdek, transformatsion ta'lim tamoyillari hamda metakognitiv strategiyalar qo'llanilib, o'quvchilarning refleksiv va o'z-o'zini boshqarish asosidagi yozma faoliyati shakllantirildi.

Yakuniy bosqichda amalga oshirilgan pedagogik ta'sirlarning samaradorligi oldingi va keyingi natijalarni qiyosiy tahlil qilish orqali baholandi. O'quvchilarning yozma ishlarida mantiqiy izchillik, original fikr, leksik boylik va kommunikativ aniqlik darajasi sifat mezonlari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning metakognitiv refleksiya faoliyati ham rivojlantirildi, ya'ni ular o'z yozgan matnlarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va matnni takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantirdilar. Olingan ma'lumotlar sifatli tahlil va qiyosiy pedagogik metodlar yordamida qayta ishlanib, kreativ fikrlash asosida yozma nutqni rivojlantirishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shunday qilib, kreativ fikrlash asosida yozma nutqni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktikaning nazariy hamda amaliy integratsiyasini talab qiluvchi ko'p qirrali ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning yozma nutqi, matn yaratish kompetensiyasi hamda kommunikativ faolligini sezilarli darajada rivojlantirdi. Tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilar erkin yozuv (free writing), hikoya tuzish (storytelling), assotsiativ tafakkur va refleksiv yozuv faoliyatlarida qatnashgandan so'ng mustaqil fikrlash va original matn yaratish darajasi ancha oshganligi kuzatildi.

Qiyosiy tahlil natijalari o'quvchilarda lug'aviy boylikning kengayishi, mantiqiy izchillikning yaxshilanishi, semantik moslashuvchanlikning kuchayishi hamda kreativ tasavvurning rivojlanganligini ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilar yozma nutq orqali o'z shaxsiy fikrlarini erkin ifodalash va voqealarni mustaqil talqin qilishda faolroq ishtirok eta boshladilar.

Transformatsion ta'lim strategiyalari va refleksiv yozuv metodlarining joriy etilishi o'quvchilarning metakognitiv qobiliyatlari hamda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini

rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar g'oyalarni tartibga solish, matn izchilligini saqlash va individual mualliflik pozitsiyasini ifodalashda yanada ishonchli bo'ldilar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi:

Ko'rsatkichlar	Eksperimentgacha	Eksperimentdan so'ng
Mustaqil matn yaratish	44%	78%
Kreativ fikrlash faolligi	42%	74%
Lug'aviy boylik	47%	82%
Refleksiv fikrlash ko'nikmalari	40%	70%
Kommunikativ kompetensiya	45%	80%

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, kreativ pedagogika va innovatsion yozuv texnologiyalari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun qulay pedagogik va psixologik shart-sharoitlar yaratadi hamda ularning matn yaratishdagi ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Muzokara. Mazkur tadqiqot natijalari yozma nutqni rivojlantirish jarayoni murakkab psixolingvistik hodisa bo'lib, u tafakkur, xotira, motivatsiya va kommunikativ ehtiyojlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanishini tasdiqladi. Olingan empirik natijalar yozma nutqni faqat grammatik ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki ijodiy-kognitiv faoliyat sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Natijalar Aleksey Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan nutq faoliyati nazariyasi bilan to'liq uyg'unlikda ekanligini ko'rsatadi. Olimning fikriga ko'ra, nutq faoliyati kommunikativ va intellektual jarayonlarning birligi sifatida yuzaga keladi. Tadqiqot davomida ham yozma nutq jarayonida o'quvchilarning analitik-sintetik tafakkur, semantik qayta ishlash va kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlari muhim rol o'ynashi aniqlandi. Shuningdek, kreativ fikrlash bo'yicha olingan natijalar Joy Paul Guilford va Edward de Bono tomonidan ilgari surilgan divergent va lateral fikrlash nazariyalarini tasdiqlaydi. O'quvchilarning matn yaratish jarayonida originallik, moslashuvchanlik va fikrlar sarmahsulligi oshgani kuzatildi. Bu esa kreativ yozuvning lingvodidaktik samaradorligini empirik jihatdan asoslaydi.

Refleksiv yozuv texnologiyalarining samaradorligi Alexander Luria va Vasily Davydov qarashlari bilan uyg'unlashadi. O'quvchilarda o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va matnni qayta ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi yozma nutqni dinamik jarayon sifatida shakllantirishga xizmat qildi. Kommunikativ kompetensiya nuqtayi nazaridan natijalar Dell Hymes nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi. Yozma nutqning samaradorligi faqat grammatik to'g'rilik bilan emas, balki vaziyatga moslik, pragmatik aniqlik va kommunikativ maqsadga erishish darajasi bilan ham belgilanadi. Maqolada o'quvchilarning matnlarida aynan shu komponentlarning sezilarli darajada rivojlanganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, an'anaviy yozma nutq metodikasining reproduktiv xarakteri kreativ salohiyatni to'liq ochib bera olmasligi aniqlandi. Bu holat konstruktivistik yondashuvning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi, chunki o'quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kreativ fikrlash, refleksiya va kommunikativ faoliyat integratsiyasi yozma nutqni rivojlantirishning eng samarali lingvodidaktik modeli ekanligini ko'rsatdi. Bu model o'quvchilarda nafaqat til kompetensiyasini, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ madaniyatni ham shakllantiradi.

Xulosa. Mazkur maqola kreativ fikrlash asosida yozma nutqni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar yozma nutqning murakkab psixolingvistik va kognitiv jarayon ekanligini tasdiqladi. Yozma nutq tafakkur, xotira, tasavvur va kommunikativ ehtiyojlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadigan dinamik faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozma nutqni rivojlantirish jarayoni faqat til bilimlarini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli kreativ fikrlashga asoslangan yondashuv yozma nutqni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida o'zini namoyon etadi.

Shuningdek, refleksiv faoliyat va metakognitiv ko'nikmalar yozma nutqni takomillashtirishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. O'quvchilar o'z matnini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va uni qayta ishlash orqali yozma nutq sifatini bosqichma-bosqich yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kreativ fikrlash, refleksiya va kommunikativ faoliyatning integratsiyasi yozma nutqni rivojlantirishning eng samarali lingvodidaktik modeli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, original matn yaratish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy ta'lim jarayonini sifat jihatdan takomillashtiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 212-bet
2. Леонтьев А.А. Основы теории речевой деятельности. - Москва: Наука, 2003. - С. 94.
3. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1986. – p. 172
4. Torrance E.P. Creativity in Education. – London: Routledge, 1995. – p. 81
5. G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 219-bet.
6. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014. – p. 241
7. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – Москва: ИКАР, 2009. – 128 с.
8. Лурия А.Р. Язык и сознание. - Москва: МГУ, 1998. - С. 156
9. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - Москва: ИНТОР, 1996. - с. 144
10. Hymes D. Foundations in Sociolinguistics. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974. – p. 276.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.